

## TALABALAR ORASIDA SPORT MENEJMENTIGA BO'LGAN QIZIQISHNI O'RGANISH TAHLILI VA ULARNI SOHAGA JALB QILISH YONDASHUVLARI

**Mamurova Aydana Erjan qizi**

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetining Jismoniy tarbiya va sport menejmenti, sport tadbirlarini tashkil etish yo'nalishining 2-kurs bakalavriat talabasi.

[mamurovaaidana@gmail.com](mailto:mamurovaaidana@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15521828>

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada talabalar orasida sport menejmentiga bo'lgan qiziqishni o'rganish va sport menejmenti sohasiga yangi fikrlash tizimini kiritish, innovatsion yondashuvlar orqali kadrlar salohiyatini oshirish hamda iqtidorli yoshlarni sohaga jalb qilish bo'yicha zamonaviy uslublar tahlil qilinadi. Shuningdek, sport menejerlarini tayyorlashda ilmfan, texnologiya va amaliyotning uyg'unlashgan holatdagi o'rni yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** Sport menejmenti, innovatsion fikrlash, kadrlar tayyorlash, yoshlarni jalb qilish, sport sohasi, boshqaruv tizimi, raqamli texnologiyalar, strategik rejalashtirish, sport ta'limi, zamonaviy yondashuvlar.

**Аннотация.** В данной статье рассматривается изучение интереса студентов к спортивному менеджменту и внедрение новой системы мышления в эту сферу. Анализируются современные методы повышения потенциала кадров через инновационные подходы, а также привлечения талантливой молодежи в данную отрасль. Кроме того, освещается роль интеграции науки, технологий и практики в процессе подготовки спортивных менеджеров.

**Ключевые слова:** Спортивный менеджмент, инновационное мышление, подготовка кадров, привлечение молодежи, сфера спорта, система управления, цифровые технологии, стратегическое планирование, спортивное образование, современные подходы.

**Abstract.** This article explores students' interest in sports management and introduces a new way of thinking in the field. It analyzes modern methods for enhancing personnel potential through innovative approaches and attracting talented youth to the sector. Additionally, the article highlights the role of integrating science, technology, and practice in the training of sports managers.

**Keywords:** Sports management, innovative thinking, personnel training, youth engagement, sports sector, management system, digital technologies, strategic planning, sports education, modern approaches.

### Kirish

Hozirgi globallashuv davrida sport nafaqat jismoniy faollik, balki iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning muhim omillaridan biriga aylanmoqda. Shu bois, sport sohasida samarali menejment tizimini shakllantirish, yangicha fikrlaydigan va innovatsion qarashlarga ega kadrlarni tayyorlash zaruriyati ortib bormoqda.

Sohaning kelajakdagi yutuqlarini ta'minlash uchun sport menejmenti sohasi kadrlarini qiziqishini o'rganish va ularni aynan shu sohani kelajakda rivojlantirishga qaratish yo'llari tahlil qilinadi. Bugungi kunda sport menejmenti sohasiga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda.

Shu munosabat bilan ushbu yo'nalish bo'yicha 18 nafar talaba ishtirokida maxsus so'rovnoma o'tkazildi. So'rovnoma orqali talabalar fikrlari, qiziqish sabablari va soha rivoji uchun zarur bo'lgan takliflar o'rganildi. Quyida so'rovnoma natijalari tahlili keltirilgan.

So'rovnoma natijalari:

1-savol: Siz sport menejmentiga qiziqasizmi?

Ha – 14 nafar talaba

Yo'q – 4 nafar talaba

Natija: Ko'pchilik talabalarda ushbu sohaga nisbatan qiziqish mavjudligi aniqlanadi.

2-savol: Qiziqishga sabab bo'lgan omillar? (bir nechta variant tanlash mumkin edi)

Sportga bo'lgan qiziqish – 7 nafar talaba

Menejment va tashkilotlarni boshqarishga qiziqish – 10 nafar talaba Boshqa sabab – 1 nafar talaba

3-savol: Sport menejmenti bo'yicha ta'lim dasturlari haqida fikringiz?

Juda ijobiy – 10 nafar talaba

Fikrim yo'q – 4 nafar talaba

Salbiy – 4 nafar talaba

4-savol: Sport menejmenti bo'yicha amaliyotlar yoki stajirovkalar siz uchun qanchalik muhim?

Juda muhim – 12 nafar talaba

Unchalik muhim emas – 6 nafar talaba

5-savol: Yoshlarni sport menejmentiga jalb qilishda qanday motivatsiya vositalari samarali?

Stipendiyalar – 7 ta

Mukofotlar – 6 ta

Innovatsion ta'lim dasturlari – 5 ta

Natija: Bu javoblar talabalar orasida rag'batlantirish va innovatsion yondashuvlarning katta rol o'ynashini ko'rsatadi.

6-savol: Yosh mutaxassislarni sport menejmentiga qanday jalb qilish mumkin?

Talabalar quyidagi takliflarni bildirishgan: Ommaviy sport tadbirlariga va musobaqalarga faol jalb qilish, amaliyotga ko'proq e'tibor qaratish – 4 nafar talaba

Sohani bitirgan kadrlar natijalari bilan o'rtoqlashish orqali motivatsiya berish – 1 nafar talaba

Yangi innovatsiyalarni kiritish – 3 nafar talaba Soha imkoniyatlari haqida keng tushuntirish ishlari olib borish – 2 nafar talaba

Qolgan talabalar fikr bildirishmagan.

So'rovnoma xulosasi: O'tkazilgan so'rovnoma natijalari sport menejmenti sohasiga bo'lgan talabalar qiziqishi yetarlicha yuqori ekanini ko'rsatdi. Talabalar innovatsion yondashuv, amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim hamda real tajribaga asoslangan faoliyatni muhim deb bilishmoqda. Shu asosda, sohaga iqtidorli yoshlarni jalb qilish uchun innovatsion ta'lim dasturlarini ishlab chiqish, rag'batlantirish tizimini kuchaytirish va amaliyot imkoniyatlarini kengaytirish zarur.

Asosiy qism

Yangi fikrlashning zarurati

An'anaviy yondashuvlar sport menejmentida ko'p hollarda samarasiz natijalar bermoqda.

Raqobatbardosh, ilg'or texnologiyalarni tushunadigan va boshqaruvda kreativ fikrlaydigan kadrlarga ehtiyoj ortmoqda. Yangi fikrlash deganda quyidagilar tushuniladi:

Raqamli texnologiyalarni boshqaruvga tatbiq qilish Analitik fikrlash asosida qaror qabul qilish Jamiyat ehtiyojlarini hisobga olgan loyihalar yaratish Xalqaro tajribalardan foydalanish

O'zbekistondan amaliy misollar

1. O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetida sport va turizmni rivojlantirish orqali jamiyat ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan loyihalar amalga oshirilmoqda. (jtsu.uz)

2. "Jismoniy tarbiya va sport menejmenti" darsligida sport tashkilotlarida analitik yondashuvlar muhimligi qayd etilgan. (namdu.uz)

3. Milliy Olimpiya qo'mitasi xalqaro tajribalarni o'rganib, menejment tizimiga joriy etmoqda. Kadrlar tayyorlash tizimida o'zgarishlar Sport menejerlarini tayyorlashda nazariy bilimlar bilan birga amaliyotga alohida e'tibor qaratish lozim.

Bu quyidagilar orqali amalga oshiriladi: Zamonaviy o'quv dasturlarni joriy etish Seminar va treninglar tashkil qilish Stajirovka va amaliyot dasturlari orqali tajriba oshirish. Yoshlarni sohaga jalb qilish yondashuvlari Yoshlar orasida sport menejmentiga qiziqishni oshirish uchun quyidagi choralar muhim:

- Ijtimoiy tarmoqlarda targ'ibot
- Grant va stipendiyalar
- Startap va loyihalar tanlovlari
- Ilhomlantiruvchi uchrashuvlar Yoshlarni sport menejmenti sohasiga jalb qilish nafaqat sport sohasining barqaror rivojlanishi, balki kelajak avlod rahbarlarining salohiyatini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi.

Zamonaviy sport sohasi doimo o'zgarib borayotgan bozor sharoitlariga, raqamli texnologiyalarga, hamda boshqaruvdagi kreativ yondashuvlarga moslashgan kadrlarni talab qiladi.

Shu sababli yoshlarni sohaga giziqtirishda ko'p girrali, kompleks yondashuvlar talab etiladi.

1. Ta'lim va malaka oshirish imkoniyatlarini kengaytirish Innovatsion o'quv dasturlari:

An'anaviy ma'ruzalar o'rniga interaktiv darslar, loyiha asosida o'qitish va real sport tashkilotlari bilan hamkorlikda seminarlar tashkil etish zarur.

Onlayn kurslar va master-klasslar: Yoshlar orasida raqamli o'qitish vositalari ommalashgan. Shu sababli sport menejmenti bo'yicha onlayn platformalarda darslar, videodarslar, webinarlar tashkil etilishi muhim.

- Xalqaro almashinuv dasturlari:

Talabalarni chet eldagi sport tashkilotlariga yoki universitetlarga qisqa muddatli stajirovkaga yuborish orqali sohaga bo'lgan qiziqish va ishonchni oshirish mumkin.

2. Rag'batlantiruvchi mexanizmlar

- Stipendiyalar va grantlar: Sport menejmenti yoʻnalishida tahsil olayotgan talabalar uchun maxsus moliyaviy yordam dasturlarini ishlab chiqish (davlat va xususiy sektor hamkorligida).

- Tanlov va mukofot tizimlari: “Eng yaxshi sport loyihasi”, “Yilning eng faol sport menejeri talaba” kabi tanlovlar yoshlarni oʻzini namoyon etishga undaydi.

- Startap qoʻllab-quvvatlash: Sport menejmentiga oid yangi gʻoyalar va loyihalarni moliyaviy va texnik qoʻllab-quvvatlash orqali yoshlarni sohada ijodiy fikrlashga ragʻbatlantirish.

### 3. Amaliy tajriba va stajirovka imkoniyatlari

- Sport tashkilotlari bilan hamkorlik: Yoshlarni stadionlar, sport federatsiyalari, klublar va sport tadbirlarini tashkil etuvchi kompaniyalarda amaliyot oʻtashga jalb qilish zarur.

- Koʻngillilik dasturlari: Talabalarni sport musobaqalarida koʻngilli sifatida ishtirok ettirish orqali ularga menejment jarayonini bevosita koʻrsatish.

- Mentorlik tizimi: Sohada faoliyat yuritayotgan tajribali mutaxassislar yoshlar bilan ishlashi, maslahat berishi, kasbiy rivojlanishiga koʻmaklashishi muhim.

### 4. Raqamli va ijtimoiy tarmoqlar orqali targʻibot

- Blog va podkastlar: Yoshlar orasida ommalashgan kommunikatsiya kanallarida sport menejmenti haqidagi bilimlarni yetkazish.

- Sohadagi muvaffaqiyatli shaxslar bilan suhbatlar: Ilhom baxsh etuvchi intervyular va motivatsion chiqishlar yoshlar ongida sohaga nisbatan ijobiy tasavvur hosil qiladi.

- Vizual kontent: Ijtimoiy tarmoqlarda sport menejerlarining faoliyatini koʻrsatadigan videoroliklar, infografikalar, interaktiv sahifalar ochish foydali boʻladi.

### 5. Maktab va kollejlari bilan hamkorlik

- Erta kasb tanlovi uchun yoʻnaltiruvchi mashgʻulotlar: Yosh avlodga sport menejmentining mohiyatini tushuntiruvchi darslar, tanishtiruv treninglari tashkil etish.

- Soha vakillari ishtirokida ochiq darslar:

Maktab va kasb-hunar kollejlari oʻquvchilariga soha vakillari bilan jonli muloqot, tajriba almashinuvi tashkil etilishi kerak.

### **Xalqaro tajriba va undan foydalanish imkoniyatlari**

Sport menejmenti global miqyosda tez rivojlanayotgan sohalardan biri boʻlib, har bir davlat oʻziga xos yondashuvlarga ega. Xalqaro tajribani oʻrganish orqali Oʻzbekistonda ushbu sohani yanada samarali rivojlantirish mumkin.

Quyida bir nechta ilgʻor davlatlar tajribasi tahlil qilinadi.

1. AQSh: NCAA modeli va tijoratlashgan sport tizimi AQShda sport menejmenti, ayniqsa oliy taʼlim muassasalari darajasida yuqori darajada rivojlangan. NCAA (National Collegiate Athletic Association) sportni boshqaruvchi asosiy tashkilot boʻlib, quyidagilar bilan ajralib turadi: Universitet sportchilariga stipendiyalar beriladi, bu esa yoshlarni faol sportga jalb qiladi. Har bir universitetda professional darajadagi sport menejerlari ishlaydi. Sport voqealari orqali katta miqdorda daromad olinadi (TV huquqlari, reklama, merchandising). Bu model orqali sport nafaqat ijtimoiy, balki iqtisodiy resursga aylantirilgan.

2. Germaniya: Klub asosidagi boshqaruv modeli Germaniyada professional sport, ayniqsa futbol, klublar orqali boshqariladi.

Har bir klub: Mustaqil boshqaruv organiga ega. Mahalliy jamoalarning ishtiroki bilan sport ierarxiyasini shakllantiradi. "50+1 qoidasi" orqali klublar tijoratdan himoya qilinadi.

Bu yondashuv sportni ommaviy va ijtimoiy jihatdan foydali soha sifatida saqlab qoladi.

3. Yaponiya va Janubiy Koreya: Texnologik integratsiya Sharqiy Osiyodagi davlatlar yondashuvlarni faol tatbiq etmoqda: sport menejmentida texnologik Sportchilarning ma'lumotlari maxsus ilovalar va sun'iy intellekt asosida boshqariladi. Virtual treninglar, video tahlillar orqali natijalar kuzatilib boriladi. Elektron biletlash, muxlislar bilan onlayn aloqalar yuqori darajada rivojlangan.

4. Avstraliya: Sport ta'limi va trening markazlari Avstraliya sport ta'limiga katta e'tibor qaratadi. Har bir sport turi uchun alohida markazlar mavjud (masalan, Australian Institute of Sport). Bu markazlarda: Boshqaruv kadrlari uchun maxsus treninglar. Ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalar asosida qarorlar qabul qilinadi. Sport va sog'liqni saqlash o'rtasida integratsiyalashgan yondashuv mavjud.

Xulosa Sport menejmentida yangi fikrlashni joriy etish – zamonaviy, bilimli va kreativ kadrlar tayyorlash orqali sport sohasining barqaror rivojlanishiga erishishning kalitidir. Bu borada ta'lim, innovatsiya va amaliyot uyg'unligi muhim ahamiyatga ega. O'tkazilgan so'rovnoma natijalari, talabalar sport menejmentiga katta giziqish bildirayotganini, bu yo'nalishda amaliyotga asoslangan, interaktiv va innovatsion o'quv-uslubiy yondashuvlarga ehtiyoj kuchli ekanini ko'rsatdi. Ayniqsa, amaliyot va stajirovkalarning ahamiyati, motivatsion dasturlar (stipendiyalar, mukofotlar) va zamonaviy ta'lim vositalarining (innovatsion dasturlar, raqamli platformalar) qo'llanilishi talabalar ishtirokini yanada kuchaytirishi mumkin.

## REFERENCES

1. O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti. (2023). Sport va turizm barqaror taraqqiyot omili. <https://www.jtsu.uz/e/blog/1147-sport-va-turizm-barqaror-taraqqiyot-omili>
2. Namangan Davlat Universiteti. (2024). Jismoniy tarbiya va sport menejmenti (darslik). <https://namdu.uz/media/Books/pdf/2024/06/04/NamDU> ARM-3550-Jismoniy\_tarbiya\_va\_sport\_menejmenti\_.pdf
3. Maisey, D. (2023). New Balls Please: How Sports Recruitment Must Change to Win. LinkedIn. <https://www.linkedin.com/pulse/new-balls-please-how-sports-recruitment-must-change-win-dan-maisey-9grcc>
4. Sportsmith. (2023). Innovation in sport, creativity and innovation management. <https://www.sportsmith.co/articles/innovation-in-sport-creativity> and-innovation-management
5. sport Taylor & Francis Online. (2024). Transforming the experiential learning of management. <https://www.tandfonline.com/doi/full/10.1080/13639080.2024.2335474>